



FARG‘ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2024 - yil 15 - mart

37-11-154-F/24

Buvayda tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28 va 73-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

1. Tumanimizda 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayramini ko‘tarinki ruxda o‘tkazish, bayram munosabati bilan tumanimizdagi tashkilotlarda ishlab, yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida munosib mehnat qilib kelayotgan xotin-qizlar uchun bayram dasturxonini tayyorlash, to‘yxona xizmati, sovg‘alar sotib olish hamda sovg‘alarni tantanali ravishda topshirish bilan bog‘liq xarajatlar uchun tuman hokimligiga, mahalliy budjetning 2024-yilgi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 71.5 (yetmish bir million besh yuz ming) mln.so‘m mablag‘ ajratilsin.
2. Tuman hokimligi moddiy-texnika ta‘minotini yaxshilash, tuman hokimi “TRASKER” rusumli xizmat mashinasining ishda foydalanishda qiyinchiliklar keltirib chiqarayotganligini inobatga olgan holda mazkur xizmat avtomashinasini joriy ta‘mirlash va ehtiyot qismlari sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun 3.8 (uch million sakkiz yuz ming) mln.so‘m mablag‘ tuman mahalliy budjetining 2024-yil zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisiga:

ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman Iqtisodiyot va Moliya bo‘limi hamda G‘aznachilik bo‘linmasiga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘lar

doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro'yxatga olish, G'aznachilik bo'linmasi (Sh.Soliyev)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Mirzaxalilov va tuman hokimi o'rinbosari G'.Mamajonovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.